

O'ZBEKISTONDAGI YANGI – INKLYUZIV TA'LIM

Ortiqova Mohinur Burhon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lism fakulteti oligofrenopedagogika yo'nalishi 301-guruh talabasi

E-mail: mohinurortiqova8@gmail.com

ANOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kun yangiliklariga binoan tashkil etilayotgan ta'lism tizmidagi o'zgarishlardan biri bo'lgan Inklyuziv ta'limning joriy etilishi to'g'risida. Inklyuziv ta'limning O'zbekistonga qanday qilib kirib kelayotgani, uni joriy etilishidagi muvaffaqiyatlari haqida so'z boradi. Inklyuziv ta'limga boshqa sog'lom insonlarning qanday munosabat bildirishi, va nosog'lom insonlardagi kuzatilayotgan o'zgarishlari haqida.

kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, oligofrenopedagogika, korreksiya, YUNESKO, Xalq ta'limi vazirligi, sog'lom, jamoa, pedagoglar, nogiron, intellektual kamchilik, muvaffaqiyat, defektolog, psixolog, sinfdoshlar, oila, mahalla va h.k.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab, ta'lism sohasiga jahon standartlari talablarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Hayot davom etib borar ekan, har kimning ham hayoti bir tekislikda ketmaydi. Kunning – tuni, Yerning – osmoni, Kechaning- kunduzi, Achchiqning – shirini bo'lgani kabi, insonlar orasida ham sog'lom hamda nosog'lom insonlarni ham uchratib turamiz. Bunday shaxslar nogironligi bor yoki intellektida kamchiligi bo'lgan shaxslar deb ataladi. Hozirgi kunda qator ekologik ijtimoiy va boshqa sabablarga kora, shuningdek homiladorlikdan keyingi patalogik asoratlar natijasida bola rivojlanishi va uning ongi pasayishini ko'ramiz. Ta'lism jihatdan bunday shaxslarni *oligofrenopedagogika* fani o'rganib boradi.

Oligofrenopedagogika – aqlida nuqsoni mavzud bo'lgan bolalarni, o'qitish, ta'lism tarbiya berish, bilish jarayonlarini o'rganish haqidagi ta'limot hisoblanadi.

Shu o'rinda biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasini elatib o'tamiz: „Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul ta'lism olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.”

Nogironligi mavjud bo'lgan yoki intellektida kamchiligi bor bolalar ixtisoslashtirilgan maxsus yordamchi maktablarda ta'lism tarbiya olishardi. Lekin bugungi kun yangiliklariga binoan, yurtimizga yangi Inklyuziv Talim tizimi kirib keldi.

INKLYUZIV TA”LIM – nima degani? Bu Maktabgacha, O‘rta va Oliy ta’limni tizimini o‘zgartirish jarayoni bo‘lib, barcha nogironligi bo‘lgan bolalar va shaxslar undan foydalanishini ko‘zda tutadi. Ya’ni bunda nogironligi bo‘lgan yoki alohida yordamga muhtoj bolalarning umuta’lim maktablarida sog‘lom tengdoshlari qatorida birdek ta’lim olishi tushuniladi. Bunday holda ta’lim olish jarayoni bir- biriga o‘xshamaydigan intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo‘lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo‘lмаган tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko‘nikmalarни oladigan tarzda tashkil etiladi.

Inklyuziva ta’lim joriy etilmasdan avval, alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida muloqotlar bo‘lмаган. Turli xil kishilarning ijtimoiy muloqotlari ularning oila a’zolari yoki yaqin qarindoshlari bo‘lib qolgandi. Bundan tashqari boshqa bolalar bilan teng ravishda jamiyatga qo‘shilish qobiliyati ham bo‘lмаган. Hozirgi kunga kelib, nogironligi bor bolalar uchun ham, davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Nogironlarni umumta’lim tizimida o‘qitish masalalariga e’tibor berish Respublikamizda 1996-yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi, Respublika ta’lim markazi, va YUNESKO tashhliloti bilan hamkorlikda respublika seminari o‘tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko‘rinishdagi nogiron bolalar ta’lim olish ehtiyojiga ega edi. Shu davrdan boshlab olimlar, maxsus ta’lim tizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta’lim muassasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar ta’limi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan munosabatlari o‘zgara boshladi.

Ushbu ta’limning maqsadi va vazifalari: ta’lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixologik – pedagogik, korreksion (oldini olish) sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyati yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshish, o‘quvchilar ta’limidagi tenglik huquqini kafolatlash, jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish, imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oiladan ajralmagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish, jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatlarni shakllantirish kabilardir. Bu bola qanday imkoniyatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar har doim kattalar yordamiga muhtoj farzanddir. Inklyuziv ta’limda birgalikda (oila, mahalla, Sog‘liqni saqlash tizimi, Xalq ta’limi, sinfdoshlar, maktab jamoasi defktolog, pedagog va psixologlar) jamoada ish olib boriladi va shundagina samarali natijalarga erishish mumkin.

Inkluziv ta’lim imkoniyati cheklangan bolalarga nima berdi? O‘z imkoniyatini o‘zi uchun kashf etish imkonini berdi, mustaqil harakatlanish, birgalikda ishlash imkonini berdi, dunyoqarashi kengaydi, hayotiy tajribasi oshdi. O‘qishga bo‘lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortdi, o‘zini barcha bilan bir xil his qila boshladi, ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochildi. Yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo‘qolib boradi.

Inklyuziv ta’lim sog‘lom bolalar hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatdi? O‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlarini va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qildilar, tengdoshlariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘ondi; ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish, insonparvarlik hissi uyg‘ondi; o‘quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalandi, yordamga muhtoj insonlarga e’tiborsizlik qilmaydigan shaxsga aylandilar.

Xulosa qilib aytganda, Inklyuziv ta’limning o‘ziga xos muhim jihat shundaki, bolalar va o‘qituvchi bir-birlaridan o‘rganishadi hamda muamollarini birgalikda hal etishadi. Bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ko‘nikma va qobiliyatni rivojlantirish, yoshligidan o‘rganishni rag‘batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish katta va ko‘plab omillarga bog‘liqdir. Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bundan tashqari Inklyuziv ta’limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko‘nikmalarga ega qilish, kasb hunargao‘rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta’limi boshlang‘ich va o‘rta maxsus ta’limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarda kasb-hunar ta’limi va Oliy ta’limi ham olib borilishi kerak. Chunki Inklyuziv ta’lim tizimining vazifasi maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ulaning barcha huquqlarini ta’minlashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.Karimov „O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T – 2012
2. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” T – 1997
3. L.R. Mo‘minova „Nogiron bolalarni oilada tarbiyasi” T – 1996
4. P.M. Po‘latova „Maxsus pedagogika” (oligofrenopedagogika) – 2015
5. Internet sahifalari